"Fuqarolik jamiyati asoslarini Konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish zarurati barcha olimlar tomonidan tan olinmagan. Shunga qaramay, turli davlat tuzilishi, boshqaruv shakli va rejimiga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlar Konstitutsiyalarida fuqarolik jamiyatining ayrim jihatlari u yoki bu tarzda aks ettirilgan" [5]. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati masalalarining mustahkamlanishi ilg'or tajriba hisoblanadi va bu xalqaro tendensiyalarga mos keladi.

Xorijiy davlatlar tajribasiga e'tibor qaratsak, ularning aksariyatining Konstitutsiyalarida fuqarolik jamiyati yoki NNT uchun maxsus boblar ajratilmaganligi, faqat fundamental huquqiy asoslar ko'rsatilganligini ko'rish mumkin.

Germaniyaning Asosiy qonunida (Grundgesetz) fuqarolik jamiyati institutlariga doir asosiy normalar 9-moddada ifodalangan. Ushbu modda fuqarolarning uyushmalar va jamiyatlar tuzish huquqini kafolatlaydi. Konstitutsiya nodavlat tashkilotlarining qonuniy asosda faoliyat yuritishi uchun huquqiy asos yaratadi, biroq ular haqida to'g'ridan to'g'ri me'yorlar mavjud emas [5].

Ispaniya Konstitutsiyasining (1978) 22-moddasida uyushmalar tuzish huquqi, 6-moddasida esa siyosiy partiyalar to'g'risidagi normalar belgilangan. Bu normalar nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy asoslarini belgilaydi, biroq "fuqarolik jamiyati" yoki "fuqarolik jamiyati institutlari" atamasi to'g'ridan to'g'ri ishlatilmagan [6].

Italiya Konstitutsiyasining 2-moddasida shaxsning huquqlari va jamiyatning asosiy guruhlarini tan olinadi. 18-moddada esa fuqarolarning uyushma tuzish huquqi kafolatlanadi. Konstitutsiyaning 49-moddasi siyosiy partiyalar to'g'risidagi normalar, 39-moddasi esa kasaba uyushmalari to'g'risidagi normalarni o'z ichiga oladi [7].

Shvetsiya Konstitutsiyasining (Regeringsformen) 2-bob 1-paragrafida fuqarolarning uyushma va birlashmalar tuzish huquqi nazarda tutilgan. Bu norma nodavlat tashkilotlarini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Qizig'i, Shvetsiya qonunchiligida nodavlat tashkilotlari uchun maxsus huquqiy maqom mavjud emas, ular, odatda, "ideell förening" (ideal uyushma) sifatida ro'yxatdan o'tkaziladi [8]. Yaponiyada 1947-yilgi Konstitutsiyaning 21-moddasida yig'ilish, uyushma va ifoda etish erkinligi kafolatlanadi, lekin fuqarolik jamiyati institutlari yoki NNTlar haqida to'g'ridan to'g'ri me'yorlar yo'q. NNTlar faoliyati maxsus qonun bilan tartibga solinadi [9].

Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar konstitutsiyalarida "fuqarolik jamiyati" yoki "nodavlat notijorat tashkilotlari" atamaları kam uchraydi. Ko'proq uyushmalar tuzish, birlashish erkinligi kabi asosiy huquqlar kafolatlanadi, ular esa fuqarolik jamiyatining poydevori hisoblanadi. Konstitutsiyalar umumiy konstitutsiyaviy prinsiplar, asosiy huquqlarni belgilab bersa, NNTlar va fuqarolik jamiyati institutlarining aniq faoliyati maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi. Shunga qaramasdan, rivojlangan demokratik davlatlar konstitutsiyalaridagi bu normalar fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati uchun mustahkam huquqiy asos yaratib beradi.

G.A. Bagiryan to'g'ri ta'kidlaganidek, "Ko'plab davlatlarning Konstitutsiyaviy hujjatlarini tahlil qilish ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilgan holda, davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik shakllarini konstitutsiyaviy-huquqiy darajada takomillashtirish tendensiyasi rivojlanayotganini ko'rsatmoqda" [4].

Vengriya Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ning VIII moddasida fuqarolik jamiyati institutlariga tegishli qoidalar nazarda tutilgan. Unda har bir shaxsning nodavlat tashkilotlar tuzish va ularga qo'shilish huquqi kafolatlangan. VIII moddaning 2-qismida "Har kim tashkilotlar va birlashmalar tuzish hamda ularga qo'shilish huquqiga ega", deb belgilangan. Shuningdek, Vengriya Konstitutsiyasining preambulasida fuqarolik tashabbuslari va jamiyat a'zolarining ijtimoiy faolligi – Vengriya davlatchiligining muhim tayanchi sifatida e'tirof etilgan [10].

Polsha Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati tushunchasi 12-moddada aks ettirilgan. Unda "Polsha Respublikasi kasaba uyushmalari, dehqon jamiyatlari, birlashmalar, fuqarolik harakatlari va boshqa ixtiyoriy birlashmalar hamda fondlarning faoliyatiga kafolat beradi va fuqarolik jamiyatining hayotini ta'minlaydi" [11], deb belgilangan. Mazkur mamlakat Konstitutsiyasida fuqarolik tashabbuslari va jamoat tashkilotlarining maqomiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish huquqi ta'minlangan.

Portugaliya Konstitutsiyasining 80-moddasida fuqarolik jamiyati institutlarining iqtisodiy tashkilot shakllari sifatida tan olinishi belgilangan. Bundan tashqari, 263–267-moddalarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, uyushmalar va nodavlat tashkilotlarining maqomi tartibga solingan. Konstitutsiyaning 48-moddasida esa fuqarolarning jamoat

tashkilotlari va siyosiy birlashmalarida ishtirok etish huquqi kafolatlangan. Portugaliya konstitutsiyaviy tizimida demokratik tartibotni mustahkamlashda fuqarolik jamiyati muhim rol o'ynashi alohida ta'kidlangan [12].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri ham aynan shu tendensiyaning amaliy ifodasidir. Fuqarolik jamiyati institutlari maqomining konstitutsiyaviy mustahkamlanishi ularning davlat bilan o'zaro hamkorligining huquqiy asoslarini yaratadi va bu hamkorlikni yangi bosqichga ko'taradi.

Asosiy qism

Fuqarolik jamiyati institutlari davlat bilan teng huquqli hamkor sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar va siyosiy-huquqiy vazifalarni hal qilishda ishtirok etadi. Bu fuqarolik jamiyati tashkilotlari davlat va tijorat tashkilotlari mustaqil ravishda ta'minlay olmaydigan samarali ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, xayriya ishlarini targ'ib qilish va maqsadli yordam ko'rsatish, hokimiyat ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hamda korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borish orqali amalga oshiriladi [13].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida "Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar", deb belgilangan. Bu norma fuqarolik jamiyati institutlarini davlat organlari bilan bir qatorda, Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yurituvchi subyekt sifatida e'tirof etadi, bu esa ularning huquqiy maqomini yuridik jihatdan tenglashtiradi va mustahkamlaydi.

Konstitutsiyaning 56-moddasida "Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to'ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga ko'maklashadi", deb belgilangan. Xelmut K. Anxeyer va Stefan Toeplerning fikricha, "fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi hamkorlik samaradorligi ko'p jihatdan qonunchilik bazasining takomillashganlik darajasiga bog'liq" [14].

Bu norma fuqarolik jamiyati rivojining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini ko'rsatadi va inson huquqlari masalalarida fuqarolik jamiyati va davlat hamkorligining huquqiy asoslarini yaratadi.

"Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hayotimizning boshqa muhim sohalari va ustuvor yo'nalishlari qatori faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish, jamoatchilik nazorati institutini yanada rivojlantirishga oid normalar ham kiritilgan" [15]. Bu fikr Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi munosabatlarning sifat jihatidan yangilanganini ko'rsatadi. Bunda, ayniqsa, jamoatchilik nazorati institutining rivojlantirilishiga alohida e'tibor qaratilishi davlat va jamiyat munosabatlari demokratlashuvining muhim belgisidir. Ushbu masala kelgusi boblarda alohida tahlil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomi, vakolatlari va kafolatlarining mustahkamlanishi davlat va jamiyat munosabatlarining yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Bu normalar fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarining huquqiy asoslarini belgilaydi va samarali hamkorlik mexanizmlarini yaratishga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaviy islohotlar orqali fuqarolik jamiyatini rivojlantirish g'oyasi to'g'ri. Biroq bu jarayonda faqat qonun qabul qilish bilan cheklanmaslik kerak. Konstitutsiyaviy normalarning samarali ijrosini ta'minlash, ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish, jamiyat a'zolarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyati

institutlarining salohiyatini oshirish kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimlar tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari va davlat hamkorligining huquqiy asoslari masalasi yuzasidan turli fikrlar ilgari surilgan. Ularning fikricha, “Bugungi kunda xalqaro tajriba shuni ko’rsatadiki, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning global tendensiyalari bir qator barqaror yo’nalishlarni namoyon etmoqda. Xalqaro darajada fuqarolik jamiyati institutlariga ishonch ortib bormoqda hamda ularning davlat va korporativ sektorlarda boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ta’siri kuchaymoqda” [16].

Mazkur fikr zamonaviy tendensiyalarni to’g’ri aks ettiradi. Chunki bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davlat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki tobora kengayib bormoqda. Bu esa davlat organlari faoliyatining shaffofligini ta’minlash, korrupsiyaning oldini olish va demokratik prinsiplarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu fikrni qo’llab-quvvatlagan holda, qo’shimcha qilish kerakki, fuqarolik jamiyati institutlariga bo’lgan ishonchning ortishi ularning faoliyatini yanada takomillashtirish zaruratini ham yuzaga keltiradi.

Yuqorida fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi ko’rib chiqildi. So’nggi yillarda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish uchun yetarli huquqiy asoslar yaratilgan bo’lib, davlat boshqaruvining eng yuqori darajalarida – Prezident va Hukumat tomonidan ushbu sohaga doimiy e’tibor qaratilmoqda. Bu esa, o’z navbatida, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huquqiy kafolatlari bo’lib xizmat qilmoqda.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy kafolatlarini ta’minlaydigan, zamonaviy demokratik talablar va xalqaro standartlarga javob beradigan normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirildi. Buning natijasida 20 ga yaqin qonun, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va Hukumat qarorlari qabul qilindi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining fuqarolik jamiyati institutlariga oid huquqiy hujjatlarini yuridik kuchi va qabul qilinish davriga qarab tizimli ravishda tahlil qilish maqsadga muvofiq. Chunki bunday yondashuv fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomining rivojlanish dinamikasi, huquqiy mexanizmlarining takomillashuv bosqichlari va davlat organlari bilan o’zaro munosabatlarining evolyutsiyasini aniq ko’rsatib berish imkonini beradi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5430-son Farmoni nodavlat notijorat tashkilotlarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini yanada takomillashtirdi. Bu borada quyidagi muhim jihatlarni alohida ta’kidlash lozim:

Birinchidan, farmon bilan nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini ta’minlashga qaratilgan yangi mexanizmlar joriy etildi. Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarining hisobvaraqlariga chet davlatlar, xalqaro va xorijiy tashkilotlardan kelib tushgan mablag’lardan erkin foydalanish imkoniyati yaratildi. Bu esa ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, farmon nodavlat notijorat tashkilotlarining davlat organlari bilan o’zaro munosabatlarining huquqiy asoslarini mustahkamladi. Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini majburiy tartibda O’zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi bilan kelishish tartibi o’rnatildi.

Uchinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini belgilovchi qonunchilik normalarida ortiqcha byurokratik talablar va g'ovlar bartaraf etildi. Bu esa ularning faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu Farmon bilan nodavlat notijorat tashkilotlari manfaatlarini ifoda etish hamda davlat bilan ular o'rtasida ko'prik vazifasini bajarishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi tashkil qilindi. Shuningdek, aholi bilan ochiq muloqot olib borishning yangi samarali vositalarini joriy etish maqsadida davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi "2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6181-son Farmoni fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlagan. Bu farmon fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish uchun muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Farmon fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini yanada takomillashtirishga qaratilgan bir qator muhim normalarni o'z ichiga olgan.

Birinchi, farmon fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomini aniqlashtiruvchi normalarni belgilagan. Jumladan, farmonning 2-bandida Konsepsiyaning ustuvor yo'nalishlari sifatida:

- fuqarolik jamiyati institutlariga ko'mak berish hamda ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish;

- davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish belgilangan.

Ikkinchi, fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomini mustahkamlovchi yangi mexanizmlar joriy etilgan:

- Nodavlat notijorat tashkilotlarining Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi doimiy vakili instituti – bu orqali qonun loyihalarini muhokama qilish jarayonida NNTlar ishtiroki ta'minlanadi.

- Davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari – bu orqali NNTlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki kafolatlanadi.

- "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining ochiqlik indeksi" – bu orqali NNTlarning faoliyat samaradorligi baholanadi.

Uchinch, farmon fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy holatini belgilovchi muhim indikatorlar o'rnatgan:

- NNTlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmini 1,8 barobarga oshirish;

- O'zbekiston NNT milliy assotsiatsiyasi a'zolari sonini 30 foizga yetkazish;

- NNTlar tomonidan qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar sonini 5000 taga yetkazish.

To'rtinchi, farmon fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarining yangi shakllarini joriy etgan:

- davlat organlari va NNTlar o'rtasida elektron aloqa vositalari orqali tezkor muloqot tizimi;

- ijtimoiy sheriklik doirasida "kraudfanding instituti";

- "Shaffof xayriya" yagona interaktiv portali.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-124-son Farmoni fuqarolik jamiyati institutlarining

konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini yanada mustahkamlash va davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarini takomillashtirishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur Farmon fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini yanada mustahkamlash va davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarini takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutadi. Farmonda belgilangan mexanizmlar fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va jamiyat hayotidagi rolini oshirishga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomini belgilashda davlat rag'batlantirish mexanizmlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrda "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun" ko'krak nishonini ta'sis etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4017-son qarori fuqarolik jamiyati institutlari vakillarini rag'batlantirishning muhim huquqiy asosini yaratdi.

Qarorda fuqarolik jamiyati rivojiga hissa qo'shgan shaxslarni taqdirlashning aniq mezonlari belgilangan. Xususan, mamlakatda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, inson huquqlari va qonuniy manfaatlarini, demokratik qadriyatlarni himoya qilish, aholining siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish kabi sohalarida faoliyat olib borayotgan shaxslar taqdirlanishi mumkin. Qaror fuqarolik jamiyati institutlarining nufuzini oshirishga xizmat qilishi bilan birga, ularning davlat organlari bilan samarali hamkorligini rag'batlantirishga ham qaratilgan. Bu esa fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa

Yuqorida o'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. Fuqarolik jamiyati institutlarining konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi demokratik davlatning muhim asosi hisoblanadi. Bu maqom ularning davlat bilan munosabatlarida o'z huquq va majburiyatlarini to'liq amalga oshirish imkoniyatlarini ta'minlaydigan mustahkam huquqiy poydevor yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda fuqarolik jamiyati institutlariga alohida XIII bob ajratilgani ularning davlat va jamiyat hayotidagi o'rnining nihoyatda muhimligini tasdiqlaydi.

2. Xalqaro tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar (Germaniya, Ispaniya, Italiya, Shvetsiya, Yaponiya) konstitutsiyalarida fuqarolik jamiyati va NNTlar alohida bob shaklida ajratilmaydi, lekin ularning faoliyat yuritishi uchun fundamental huquqlar (uyushmalar tuzish, birlashish erkinligi) kafolatlanadi. Ayni paytda Vengriya, Polsha, Portugaliya kabi davlatlarda fuqarolik jamiyati institutlariga nisbatan to'g'ridan to'g'ri konstitutsiyaviy qoidalar mavjud. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati institutlariga alohida bob ajratilishi ilg'or demokratik tajriba hisoblanib, xalqaro tendensiyalarga mos keladi.

3. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomini mustahkamlovchi normativ-huquqiy baza izchil rivojlanib bormoqda. Prezident farmonlari va Hukumat qarorlari xronologik tarzda tahlil qilinganda, 2005-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda huquqiy asoslarning takomillashib borgani, nodavlat notijorat tashkilotlarining mustaqilligi, moliyaviy barqarorligi va davlat organlari bilan hamkorligi mexanizmlarining rivojlantirilgani ko'rinadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda qabul qilingan Prezident farmonlari (2018-, 2021-, 2024-yillardagi) fuqarolik jamiyati institutlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, hamkorlik mexanizmlarining takomillashtirilishi va jamoatchilik nazoratining kuchaytirilishiga qaratilgan.

4. Fuqarolik jamiyati institutlarining davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish funksiyasi konstitutsiyaviy darajada belgilangan muhim yangilik hisoblanadi. Ushbu funksiya orqali fuqarolik jamiyati institutlari davlat organlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va qonuniyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, davlat budjetining shakllantirilishi va ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyati (148-modda) fuqarolik jamiyati institutlarining o'rnini yanada mustahkamlaydi.

5. Konstitutsiyaviy normalarning samarali amalga oshirilishi uchun faqat qonun qabul qilish bilan cheklanmaslik, balki ushbu normalarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish, jamiyat a'zolarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyati institutlari salohiyatini yaxshilash kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bu borada O'zbekistonda qabul qilingan davlat dasturlari va "yo'l xaritalari" muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomi, vakolatlari va kafolatlarining mustahkamlanishi davlat va jamiyat munosabatlarining yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati uchun yaratilgan konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar ularning davlat bilan samarali hamkorligini ta'minlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va inson huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Avak'yan S.A. Grazhdanskoe obshchestvo kak garantiya politicheskogo dialoga i protivodeystviya ekstremizmu: klyuchevye konstitutsionno-pravovye problemy [Civil society as a guarantee of political dialogue and countering extremism: key constitutional and legal issues]. Moscow, Yustitsinform Publ., 2015, p. 652.
2. Saidov A.X. Rivojlanish makonida jamiyat institutlari [Social institutions in the development space]. 2020.
3. Sultanova S.A. Konstitutsionnaya reforma kak sposob obnovleniya obshchestvennoy zhizni [Constitutional reform as a way to renew public life]. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, 2023, p. 73.
4. Bagiryan G.A. Grazhdanskoe obshchestvo v Konstitutsiyakh zarubezhnykh stran [Civil Society in the Constitutions of Foreign Countries]. *Current Issues of Russian Law*, 2024, vol. 19, no. 3, p. 180.
5. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland [Basic Law for the Federal Republic of Germany]. 1949. Available at: <https://www.gesetze-im-internet.de/gg/BJNR000010949.html/>
6. Constitución Española [Spanish Constitution]. 1978. Available at: <https://www.boe.es/buscar/act.php?id=BOE-A-1978-31229/>
7. Costituzione della Repubblica Italiana [Constitution of the Italian Republic]. 1947. Available at: <https://www.senato.it/documenti/repository/istituzione/costituzione.pdf>
8. Documents and laws. Available at: <https://www.riksdagen.se/en/documents-and-laws/>
9. Freedom of assembly and association, as well as speech, press, and all other forms of expression, are guaranteed. Constitution of Japan, 1947. Article 21. Available at: <https://elaws.e-gov.go.jp/document?lawid=321CONSTITUTION>

10. Fundamental Law of Hungary. Available at: <https://net.jogtar.hu/jogszabaly?docid=a1100425>.
atv
11. Constitution of the Republic of Poland. Available at: <https://www.sejm.gov.pl/prawo/konst/polski/kon1.htm>
12. VII Constitutional review. 2005. Available at: <https://www.parlamento.pt/Legislacao/Paginas/ConstituicaoRepublicaPortuguesa.aspx>
13. Tkach O., Batrymenko O., Rudenko S., Tovmash D., Tupytsia O., Yakovleva L. Improving mechanisms of social partnership in the system of «government-business-civil society» in the context of European integration. *Cuestiones Políticas*, 2023, vol. 41, no. 79, p. 64.
14. Helmut K. Anheier S.T. International Encyclopedia of Civil Society. New York, Springer-Verlag New York Inc., 2010, p. 127.
15. Xatamova A.M. Yangi O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi fuqarolik jamiyati rivojlanishining asosiy omili sifatida [The new Constitution of the new Uzbekistan as a key factor in the development of civil society]. *Modern Science and Research*, 2023, vol. 12, p. 764.
16. Sembieva L.M., Alieva A.S. Razvitie grazhdanskogo obshchestva i povyshenie konkurentosposobnosti sredstv massovoy informatsii [Development of civil society and increasing the competitiveness of the media]. *Interconf*, 2022, vol. 122, p. 129.

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIY JURNAL
2025-YIL 3-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2025 ГОД № 3

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2025 ISSUE 3

VOLUME 2 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.2.3.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.